

## KASB FAOLIYATIGA OID SAVOLLAR

1. Davlat organlarida tashkil etilgan tahlil bo'limlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Davlat qonunchiligidagi sohaviy tahlil qaysi vazifani bajaradi?
3. Intellektual mulk sohasini tahlil qilishda asosan sohaga bevosita aloqasi mavjud bo'lgan qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat etiladi ?
4. Tizimli tahlil deganda nimani tushunasiz?
5. Kompleks tahlil deganda nimani tushunasiz?
6. Kontent tahlil deganda nimani tushunasiz?
7. SWOT tahlil nimani anglatadi?
8. Funksional tahlil deganda nimani tushunasiz?
9. Intellektual mulk sohasini tahlil qilishda strategik rejalashtiruvini tushuntiring.
10. Intellektual mulk obyektlariga nimalar kiradi ?
11. Foydali modelning patentga layoqatlilik shartlari mazmuni tushuntiring.
12. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
13. Intellektual mulk huquqida Litsenziya shartnomasining o'рни va mazmunini tushuntiring
14. Geografik ko'rsatkichlarga ta'rif bering.
15. Intellektual mulk sohasini tartibga soluvchi mavjud qonunlardan qaysi birining asosiy maqsadi fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini (turdosh huquqlar) yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.
16. Sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning mazmuni yoriting.
17. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining asosiy maqsadini tushuntiring.
18. Intellektual mulk sohasini tahlil qilish natijasida yaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari qaysi qonun talablariga mos bo'lishi kerak.
19. Ixtironing patentga layoqatlilik shartlari mazmuni tushuntiring.
20. Intellektual mulk sohasida mualliflik huquqi tahlil qilinganda muallif tushunchasi kimlarga nisbatan qo'llaniladi.
21. Mualliflik prezumpsiyasi mazmuni tushuntiring.
22. Intellektual mulk sohasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar tushunchasini ta'riflang.
23. Normativ huquqiy hujjat (jumladan, intellektual mulk sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar) bilan tasdiqlanadigan qanday hujjatlar mavjud.
24. Intellektual mulk sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish mohiyatini tushuntiring.

25. Geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazishdagi talabnoma topshirishni mazmuni tushuntiring.

26. Intellektual mulk sohasida mualliflik huquqini muhofaza qilish belgilari mazmuni haqida tushuntiring.

27. Intellektual mulk sohasida normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash qanday bosqichlardan iborat?

28. Intellektual mulk sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazishdagi holatlarni tushuntiring.

29. Intellektual mulk sohasidagi indikatorlarni xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini aks ettirish va yuksaltirishning mazmuni tushuntiring.

30. Intellektual mulkni muhofaza qilish deb nomlanuvchi indikator qaysi indeksdan joy olgan va uning mazmuni?

31. Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index) bo'yicha vakolatli davlat organini aniqlang.

32. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunda tovar belgisida ogohlantiruvchi tamg'alash degan tushunma mavjud. Ushbu tushunchani mazmuni tushuntiring.

33. Intellektual mulk sohasida patent egasi tushunchasini ma'nosini yoritng.

34. Intellektual mulk sohasidagi ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizasi jarayonlari haqida tushuntiring.

35. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlarning amal qilish muddatlari haqida tushuntiring.

36. O'zbekiston Respublikasining "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi Qonunni mazmuni tushuntiring.

37. Ma'lumki, xalqaro reyting va indeksda intellektual mulk sohasiga tegishli ayrim indikator bo'yicha qilingan ishlarning sarhisobi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi yig'ilishlarida ko'rib tahlil qilinib boriladi. Ushbu kengash faoliyatini yoritng.

38. Intellektual mulk sohasi obyektlarini tahlil qilishda mualliflik huquqidagi fonogramma tushunchasini izohlang.

40. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining asosiy maqsadini tushuntiring.

41. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmonining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi asosiy vazifalari va ishchi organlari haqida tushuntiring.

42. Intellektual mulk sohasidagi indikatorlarga ham tegishli bo'lgan "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona portal mohiyatini tushuntiring.

43. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoniga ko'ra Matbuot erkinligi indeksini (*Press Freedom Index*) qaysi davlat tashkilot yuritadi.

44. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari sohaida patent vakillarini harakatini tushuntiring.

45. Intellektual mulk sohasini tahlil qilish va rivojlantirish boshqarmasining xalqaro reyting va indeksdagi asosiy faoliyati mazmuni yoritish.

46. Intellektual mulk sohasida qabul qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori rasmiy matnini tasdiqlash tizimini tushuntirish.

47. Intellektual mulk sohasida qanday materiallarni mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydigan materiallar sifatida baholanadi.

48. Shartnomani tugatish, denonsatsiya qilish yoxud undan chiqish to'g'risidagi qoidalar mavjud bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasini denonsatsiya qilish yoki undan chiqish

49. Sanoat mulki muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi mohiyati.

50. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi o'rni tushuntirish.

51. Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitim (TRIPS) bitimi mohiyati.

52. O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ittifoqining maqomi.

53. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) maqsadi.

54. "Intellektual mulk" atamasiga birinchi berilgan rasmiy ta'rif qaysi xalqaro hujjatda berilgan va u qanaqa edi.

55. Xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbasi hisoblangan konvensiyalar qaysilar

56. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomani tuzish to'g'risidagi taklifga qanday hujjatlar ilova qilinishi kerak?

57. Tovar belgisining ustuvorligi tushuntirish.

58. Xalqaro shartnoma loyihasiga yoki O'zbekiston Respublikasining ko'p tomonlama xalqaro shartnomada ishtirok etishi maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalaga doir tushuntirish xatida nimalar ifodalanishi kerak.

59. Xalqaro shartnomaga qo'shimcha shart deyilganda nima nazarda tutiladi?

60. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tili ...

61. Chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan boshqa sub'ektlar bilan o'zaro munosabatlar qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

62. O'zbekiston Respublikasi mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qaysi xalqaro shartnomalaridan qaysi birlariga a'zo?

63. Ko'zi ojiz, ko'rishda nuqsoni bo'lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to'g'risidagi Marrokash shartnomasi mohiyati.

64. Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasi mohiyati.

65. Fonogramma tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiya (Jeneva, 1971 yil 21 oktyabr) mohiyati.

66. Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirishlar beruvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi (Rim konvensiyasi) mohiyati.

67. Global innovatsion indeks nima?

68. Qaysi xalqaro shartnoma mualliflik huquqi obyektlarining Internet tarmog'ida foydalanilishi tufayli yuzaga keladigan muammolarni xalqaro miqyosda hal etishga qaratilgan?

69. O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif qaysi davlat organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritiladi?

70. Tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko'rsatkichlarning yagona tartib-taomillar orqali xalqaro muhofazasini tartibga soluvchi xalqaro shartnoma qaysi ?

71. Diplomatik protokol nima?

72. Muallifki huquqiga bag'ishlangan Bern Konvensiyasining asosiy tamoyillari nechta va ular qaysilar?

73. Xalqaro shartnomalar xususan, intellektual mulk sohasida qabul qilingan xalqaro shartnomalarning kuchga kirish davrini tushuntiring.

74. Xalqaro shartnoma loyihasining yoki O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lishni maqsad qilgan ko'p tomonlama xalqaro shartnoma matnining huquqiy ekspertizasi deganda nimalar tushunasiz?

75. Ratifikatsiya yorlig'i bu nima?

76. Xalqaro shartnoma xususan, intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnoma denonsatsiyasi bu nima?

77. Kimlar vakolatlarni ko'rsatish zaruratisiz muzokaralar olib borish va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolashi mumkin?

78. Xalqaro shartnomalar, xususan intellektual mulk sohasidagi tuzilgan shartnomalarning kuchga kirishi haqida tushuntirishlar bering.

79. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bajarilishi yuzasidan monitoringini tushuntiring.

80. BIMTning Mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasining mohiyati.